

IMOM TERMIZIY “SUNAN” ASARINING MA’NAVIY-TA’LIMIY AHMIYATI:  
“ABASA” SURASI MISOLIDA.

ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ИМАМА ТЕРИМЗИ  
«СУНАН»: НА ПРИМЕРЕ СУРЫ «АБАСА»

THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF IMAM TIRMIDHI’S  
“SUNAN”: THE EXAMPLE OF SURAH ABASA

AHAD RAYMBERDIYEV

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasida tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Imom Abu Isa Muhammad ibn Isa Termiziyning “Sunan” asaridagi Abasa surasi va Qiyomat voqealariga oid hadislarini tahlil qiladi. Maqolada hadislarining arabcha matni, tarjimai, sharh va izohlar orqali ularning ma’naviy, axloqiy, ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot insonlarning ijtimoiy tengligi, shaxsiy mas’uliyati, oxirat hayotiga tayyorgarligi hamda adolat va hurmat tamoyillarining hayotiy ifodasi kabi jihatlarni ochib beradi. Maqolada, shuningdek, Imom Termiziyning hadislarini to‘plash, isnod va matn tahlili metodikasi, Qur’on va Sunnat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, musulmonlarning ruhiy va ma’naviy rivojlanishidagi roli batafsil ko‘rsatilgan. Tadqiqot ilmiy va ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lib, Abasa surasi voqealari va Qiyomat haqidagi hadislar asosida musulmonlarni iymon, sabr, adolat va hurmat ruhiyatiga undaydi.

**Kalit so‘zlar:** Abasa surasi, Qiyomat voqealari, Imom Termiziy, hadis tahlili, ma’naviy tarbiya, Qur’on va Sunnat, isnod, sahih va hasan hadislar, ijtimoiy adolat, shaxsiy mas’uliyat.

**Аннотация.** В данной статье анализируются хадисы Имама Абу Исы Мухаммада ибн Исы Теримзи из его произведения «Сунан», относящиеся к суре «Абаса» и событиям Судного дня. В статье представлены арабский текст хадисов, их перевод, комментарии и пояснения, раскрывающие их духовное, нравственное, научное и воспитательное значение. Исследование показывает важность социальной справедливости, личной ответственности, подготовки к жизни после смерти, а также проявления принципов справедливости и уважения в жизни. Также рассматривается методика сбора хадисов Имама Теримзи, анализ иснадов и текста, связь Корана и Сунны, роль в духовном и нравственном развитии мусульман. Исследование имеет научное и образовательное значение и призывает верующих к вере, терпению, справедливости и уважению, опираясь на события суры «Абаса» и хадисы о Судном дне.

**Ключевые слова.** Сура Абаса, события Судного дня, Имам Теримзи, анализ хадисов, духовное воспитание, Коран и Сунна, иснад, sahih и hasan хадисы, социальная справедливость, личная ответственность.

**Abstract.** This article analyzes the hadiths of Imam Abu Isa Muhammad ibn Isa Tirmidhi from his work “Sunan,” related to Surah Abasa and the events of the Day of Judgment. The article provides the Arabic text of the hadiths, their translation, commentary, and explanation, highlighting their spiritual, moral, educational, and scholarly significance. The study emphasizes social equality, personal responsibility, preparation for the afterlife, and the practical implementation of justice and respect. It also examines Imam Tirmidhi’s methodology in collecting hadiths, analyzing isnads and texts, the interconnection between the Qur’an and Sunnah, and the role of these teachings in the spiritual and moral development of Muslims. The research has both scholarly and educational value,

urging believers to cultivate faith, patience, justice, and respect based on the events of Surah Abasa and the hadiths concerning the Day of Judgment.

**Keywords.** Surah Abasa, Day of Judgment events, Imam Tirmidhi, hadith analysis, spiritual education, Qur'an and Sunnah, isnad, sahih and hasan hadiths, social justice, personal responsibility.

### KIRISH

Imom Abu Isa Muhammad ibn Isa Termiziy (830–892 yillar) islom tarixida hadis ilmining eng mashhur olimlaridan biri sifatida tanilgan. U Termiziy shahrida tugʻilib, yoshligidan hadis ilmiga katta qiziqish bilan qaragan. Iso Termiziy butun hayoti davomida hadislarni toʻplash, tartibga solish va ularni tasniflashga bagʻishlagan. Uning ilmiy faoliyati nafaqat islomiy ilm-fan rivojiga, balki musulmon jamiyatining maʼnaviy tarbiyasiga ham katta hissa qoʻshgan.

Termiziyning eng mashhur asari – “Sunan” boʻlib, bu asar hadislarni mavzular boʻyicha tizimli tarzda jamlagan va ularning ishonchliligi, ishonchsizligi haqida muhim baholar bergan. Shu bilan birga Termiziy “Sunan” asarida Qurʼoni Karim oyatlarini tushuntirish bilan bogʻliq hadislarni ham keltiradi, bu esa uning tafsir ilmidagi oʻrni va ahamiyatini oshiradi. U hadislarni toʻplashda nafaqat rivoyatlarning isnodini, balki matnning maʼnosini ham chuqur oʻrganishga eʼtibor qaratgan. Imom Termiziy hayotini oʻrganish orqali, uning ilmiy metodikasi va asarlarining diniy, tarbiyaviy ahamiyati yaxshiroq tushuniladi. Ayniqsa, Abasa surasi va Qiyomat voqealariga oid hadislar uning maʼnaviy va tarbiyaviy qarashlarini ochib beradi.

### Asosiy qism.

Imom Termiziy “Sunan” asarining tafsir bobida keltirgan rivoyatlaridan birida “Abasa” surasining nozil boʻlish sababi yoritilgan. Rivoyatda kelishicha, Rasululloh (s.a.v) Qurayshning ulugʻ mushriklaridan biri bilan suhbatda boʻlgan paytda koʻzi ojiz sahoba – Ibn Umm Maktum (r.a) huzurlariga kelib, “Ey Rasululloh, menga yoʻl koʻrsating” deb iltimos qiladilar. Paygʻambarimiz (s.a.v) daʼvat uchun muhim deb hisoblangan suhbatni davom ettirishga intilib koʻzi ojiz kishiga eʼtibor qaratmay, yuzlarini boshqa tomonga buradilar. Shu holatda “U yuzini burib oldi” oyatlari nozil boʻlib, ushbu voqea Qurʼon oyatlarida abadiy saboq sifatida mustahkamlanib qoldi<sup>1</sup>.

Bu hadisdan koʻrinadiki, Islom taʼlimotida insonning ijtimoiy mavqeidan, boyligi yoki kuchidan qatʼi nazar, har bir shaxsning haqi va qadr-qimmatini muqaddasdir. Qurʼoni Karim zaif, kambagʻal va koʻzi ojiz insonlarni jamiyatdan chetlatishni qattiq qoralaydi. Rasululloh ﷺ oʻzlari ham bu voqeadan keyin Ibn Umm Maktumga alohida mehribonlik bilan munosabat qilganlari, hatto uni koʻp marta muazzinlikka tayinlaganlari rivoyat qilinadi.

Imom Termiziy hadisni keltirar ekan, uni “ghareeb” yaʼni nodir hadis sifatida baholaydi. Boshqa rivoyatlar ham mavjud boʻlib, ayrimlarida hadis toʻgʻridan-toʻgʻri Hishom ibn Urva orqali kelgan, ammo unda Oisha onamiz roziyallohu anho zikr qilinmagan. Bu tafvut hadis ilmidagi isnod tafsilotlarining ahamiyatini koʻrsatadi. Mazkur hadisning asosiy mazmuni shundaki, Islom dinida iymon egalarining qadriyatlarini har qanday ijtimoiy maqomdan ustundir. Qurʼon oyati va hadislar musulmonlarni doimo jamiyatning zaif qatlamiga – yetimlarga, kambagʻallarga, nogironlarga va ojizlarga mehr-muhabbat koʻrsatishga undaydi. Bu esa Islomda tenglik va adolat tamoyillarining hayotiy amaliy ifodasidir.

حدثنا عبد بن حميد حدثنا محمد بن الفضل حدثنا ثابت بن يزيد عن هلال بن خباب عن عكرمة عن ابن عباس عن النبي ﷺ قال  
تحشرون حفاة عراة غرلا فقالت امرأة أيبصر أو يرى بعضنا عورة بعض قال يا فلانة { لكل امرئ منهم يومئذ شأن يغنيه } قال

<sup>1</sup> Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. II. – B.344.

أبو عيسى هذا حديث حسن صحيح قد روي من غير وجه عن ابن عباس رواه سعيد بن جبير أيضا وفيه عن عائشة رضي الله تعالى عنها

Abd ibn Hamid rivoyat qiladi: Muhammad ibn al-Fadl, Thabit ibn Yazid orqali, Hilal ibn Khabbabdan, Ikrima orqali, Ibn Abbasdan rivoyat qiladilar: Payg‘ambarimiz (s.a.v) aytdilar: “Sizlar Qiyomat kuni yalang‘och, ochiq holda tirilasizlar.” Shunda bir ayol so‘radi: “Xo‘sh, birimiz boshqa birimizning auratlarini ko‘ra oladimi? Payg‘ambarimiz (s.a.v) javob berishdi: “Ey xonim, har bir kishi o‘sha kuni o‘zining holati bilan kifoyalanadi.”<sup>2</sup>

Abu Iso Termiziy bu hadisni hasan sahih deb baholaydi. Hadis Ibn Abbas orqali boshqa isnodlarda ham rivoyat qilingan va ba‘zan Oisha onamiz roziyallohu anho tomonidan ham zikr qilingan. Ushbu hadis Qiyomat kuni insonlarning tirilishi va ularning o‘z holatlari bilan bandlikda ekanligini yoritadi. Arabcha matn va tarjimadan ko‘rinib turibdiki, insonlar o‘z hayotlari davomida qilgan amallari bilan o‘lchanadi va boshqa insonlarning holati ular uchun foyda yoki zarar keltirmaydi.

Har bir inson o‘z amallari uchun javob beradi. Hech kim boshqasining gunohi yoki savobi bilan mukofotlanmaydi. Qiyomat kuni hamma shaffof va adolatli holda tiriladi. Hech kimning ijtimoiy mavqei, boyligi yoki kuchi hisobga olinmaydi. Dunyo hayotida ham, insonlar bir-birining haqqini hurmat qilishi, boshqalarning aurati va shaxsiy chegaralariga hurmat ko‘rsatishi zarurligi ko‘rsatilgan. Imom Termiziy bu hadisni keltirib, musulmonlarni qiyomat va ahloqiy mas‘uliyatga tayyorlash, shuningdek, dunyoda insoniy hurmat va ehtiyotkorlikni yuksaltirishga chaqiradi.

حدثنا عباس بن عبد العظيم العنبري حدثنا عبد الرزاق أخبرنا عبد الله بن جبير عن عبد الرحمن وهو بن يزيد الصنعاني قال سمعت بن عمر يقول قال رسول الله ﷺ من سره أن ينظر إلى يوم القيامة كأنه رأي عين فليقرأ إذا الشمس كورت وإذا السماء انفطرت وإذا السماء انشقت هذا حديث حسن غريب وروى هشام بن يوسف وغيره هذا الحديث بهذا الإسناد وقال من سره أن ينظر إلى يوم القيامة كأنه رأي عين فليقرأ إذا الشمس كورت ولم يذكر وإذا السماء انفطرت وإذا السماء انشقت

“Abbas ibn Abdul-‘Azim al-Anbari rivoyat qiladi: Abdul-Razzaq, Abdulloh ibn Bajir orqali, Abdul-Rahman orqali rivoyat qiladilar: Umar ibn Xattob aytdilar: Payg‘ambarimiz (s.a.v) dedilar: “Kim Qiyomat kunini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandek bo‘lishni istasa u “Shams” surasi oyatlarini o‘qisin.”<sup>3</sup>

Abu Iso Termiziy bu hadisni hasan g‘arib deb baholaydi. Hishom ibn Yusuf va boshqa rivoyatchilar ham ushbu hadisni shu isnod orqali keltirganlar. Ba‘zi rivoyatlarda esa oxirgi oyatlar tafsiloti biroz boshqacha zikr qilingan. Ushbu hadis Qiyomat kunining voqealarini insonlarga yaqinlashtiradi va ularni ruhiy tayyorgarlikka chaqiradi. Hadis Qiyomat kuni sodir bo‘ladigan voqealarni tasvirlaydi. Quyosh qoplanadi, osmon yoriladi va bo‘linadi. Bu insoniyat uchun eng dahshatli va hayratli kun bo‘lishini bildiradi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v) oyatlarni o‘qish orqali Qiyomatni ko‘rish tajribasini berishlarini aytadi. Bu ruhiy tayyorgarlik va tafakkur uchun mo‘ljallangan. Hadis o‘quvchini Qiyomat va oxirat haqiqatiga eslatadi. Qur‘on oyatlarini o‘qish, tafakkur qilish orqali insonlar dunyoviy hayotdan chalg‘imay, oxiratga tayyor bo‘lishadi. Bu hadis Imom Termiziy tomonidan g‘arib, lekin hasan deb baholangan. Bu hadis kam rivoyat qilingan, ammo ishonchli manba orqali keltirilgan. Hadis Qur‘on tafsirini, oyatlarning voqealarni tasvirlashini va insonni ma‘naviy tayyorgarlikka chaqirishini tushunishga yordam beradi. Ushbu hadis musulmonlarni Qiyomat voqealari va oxirat hayotini o‘ylashga chaqiradi. Oyatlarni o‘qish orqali inson o‘z qalbini tayyorlaydi, ruhiy va ma‘naviy tayyorgarlikni oshiradi. Imom Termiziy hadisni rivoyat qilish orqali bu voqealarning ahamiyatini, ularning inson ruhiyati va e‘tiqodiga ta‘sirini ko‘rsatadi.

<sup>2</sup> Akram Ziyoy Umariy. Turos at-Termiziy al-‘ailmiy. Maktaba ad-daar bil Madiynati al-munavvara, 2012. – B. 233.

<sup>3</sup> Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. II. – B. 346.

**Muhokama**

Imom Termiziyning “Sunan” asarida Abasa surasi va Qiyomat voqealariga oid hadislar, insoniy qadriyat va ma’naviy mas’uliyatni yoritishda muhim manba hisoblanadi. [3331]-hadisga ko‘ra, Qurayshning ulug‘ mushriklaridan biri bilan suhbat davomida Payg‘ambarimiz ﷺ ko‘zi ojiz sahoba Ibn Umm Maktumga e’tibor qaratmaganlar. Shu voqeadan so‘ng, “Abasa wa tawallā” oyatlari nozil bo‘lib, insonning ijtimoiy mavqei, boyligi yoki kuchidan qat’iy nazar, har bir shaxsning haqi va qadr-qimmatini muqaddas ekani Qur’oni Karimda mustahkamlangan. Hadis “g‘arib” sifatida baholangan bo‘lsa-da, uning asosiy saboqlari juda muhimdir. Islom dini jamiyatning zaif qatlamiga mehr-muhabbat ko‘rsatishni, insonlarni tenglik va adolat prinsiplariga hurmat bilan yondashishni talab qiladi.

3332-hadis esa Qiyomat kunidagi insonlarning tirilishi va ularning o‘z holatlari bilan bandlikda ekanligini ko‘rsatadi. Bu hadisdan ko‘rinib turibdiki, har bir inson o‘z amallari uchun javob beradi va boshqa insonlarning holati unga foyda yoki zarar keltirmaydi. Imom Termiziy hadisni hasan sahih deb baholaydi va bu hadis orqali u musulmonlarni Qiyomat va ahloqiy mas’uliyatga tayyorlashni, shuningdek, dunyoda insoniy hurmat va ehtiyotkorlikni yuksaltirishni maqsad qilganini ko‘rsatadi<sup>4</sup>.

3333-hadis esa Qiyomat kunining voqealarini tasvirlaydi: Quyosh qoplanadi, osmon yoriladi va bo‘linadi. Ushbu hadis orqali inson ruhiy tayyorgarlik va tafakkurga chaqiriladi. Payg‘ambarimiz ﷺ oylarni o‘qish orqali Qiyomatni ko‘rish tajribasini berishlarini aytadi, bu esa dunyoviy hayotdan chalg‘imaslik va oxiratga tayyor bo‘lishni ta’minlaydi. Imom Termiziy bu hadisni hasan gharib deb baholaydi, lekin ishonchli manba orqali rivoyat qilinganligi hadisning ilmiy va ma’naviy ahamiyatini oshiradi.

Ushbu hadislarining umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki Imom Termiziy nafaqat hadislarini rivoyat qilgan, balki ularni tafsiriy jihatdan sharhlash orqali musulmonlarni ma’naviy o‘sish va axloqiy mas’uliyatga chorlagan. Abasa surasi va Qiyomat voqealariga oid rivoyatlar insoniyatning oxirat hayotidagi javobgarligini, dunyoda insoniy qadriyatlar va adolatni himoya qilish zarurligini yoritadi.

**Xulosa**

Imom Termiziyning Abasa surasi va Qiyomat voqealariga oid hadislarini nafaqat rivoyat sifatida ahamiyatlidir, balki ular musulmonlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasini shakllantirishda chuqur ta’sirga ega. [3331]-hadis, Ibn Umm Maktum voqeasi orqali, insoniy qadriyat va tenglik prinsiplarini ochib beradi. Ushbu voqea orqali Qur’oni Karim musulmonlarni ijtimoiy mavqei, boyligi yoki kuchidan qat’iy nazar har bir shaxsning hurmat va e’tiborga loyiq ekanligini eslatadi. Rasululloh ﷺ ning ko‘zi ojiz sahobaga e’tibor qaratmaslik holati va unga keyinchalik alohida mehribonlik ko‘rsatishi, musulmonlarga insoniy hurmat va sabr-toqat tamoyillarini o‘rgatadi. Bu hadis, shuningdek, dinimizda zaif va himoyasiz insonlarga yordam berish, ularning huquqlarini himoya qilish muhimligini ta’kidlaydi.

Qiyomat kunida insonlarning shaxsiy javobgarligi va ularning amallari bilan o‘lchanishini ko‘rsatadi. Bu hadisdan olingan asosiy saboq shundaki, har bir inson o‘z amallari uchun javob beradi, boshqa insonlarning holati unga foyda yoki zarar keltirmaydi. Bu esa musulmonlarni dunyoviy hayotda adolatli va mas’uliyatli bo‘lishga, o‘z amallari va qarorlarini doimiy ravishda nazorat qilishga undaydi. Imom Termiziy hadisni hasan sahih deb baholashi, uning ilmiy ishonchliligi va ahamiyatini tasdiqlaydi.

<sup>4</sup> Akram Ziyoy Umaryy. Turos at-Termiziy al-’ailmiy. Maktaba ad-daar bil Madiynati al-munavvara, 2012.

Qiyomat voqealarining dahshatli va hayratli tafsilotlarini yoritadi: Quyosh qoplanadi, osmon yoriladi va bo‘linadi. Ushbu hadis o‘quvchini oxirat haqiqatini tasavvur qilishga va ruhiy tayyorgarlikni oshirishga chorlaydi. Payg‘ambarimiz ﷺ o‘yatlarni o‘qish orqali Qiyomatni “ko‘rish” imkoniyatini berishlarini aytadi. Bu esa nafaqat ma‘naviy o‘‘sish, balki insonning oxirat hayotiga tayyor bo‘lishi uchun ruhiy mashq hisoblanadi. Imom Termiziyning ushbu hadislar bo‘yicha sharhlari musulmonlarni bir nechta jihatdan tarbiyalaydi:

- Hadislar insonlarni boshqalarni hurmat qilish, zaiflarni himoya qilish va tenglik tamoyillariga amal qilishga chaqiradi. Abasa surasi misolida bu aniq ko‘rinadi.
- Har bir inson o‘z amallari uchun javob beradi, Qiyomat kuni har bir kishi o‘z holati bilan hisob beradi. Bu insonlarni o‘z amallariga ehtiyotkor bo‘lishga undaydi.
- Qiyomat voqealarining dahshatli tafsilotlarini tasvirlash orqali hadislar musulmonlarni oxirat hayotini doimiy nazarda tutishga, dunyoviy orzulardan chalg‘imaslikka chaqiradi.
- Imom Termiziy hadislarini to‘plash, isnod va matnini tekshirish, ularni tafsiriy jihatdan sharhlash orqali islomiy ilm-fanning rivojiga katta hissa qo‘shgan. Bu metodik yondashuv musulmonlarni nafaqat hadis ilmi, balki Qur‘oni Karimni chuqur tushunishga ham yo‘naltiradi. Natijada Imom Termiziyning Abasa surasi va Qiyomat voqealariga oid rivoyatlari musulmonlarni ijtimoiy adolat, shaxsiy mas‘uliyat va ruhiy tayyorgarlik tamoyillariga amal qilishga undaydi. U hadislarini keltirish va sharhlash orqali Qur‘on va Sunnat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi va musulmonlarning ma‘naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu hadislar dunyoda adolat va insoniy hurmatni targ‘ib qilishi, oxirat hayotiga tayyor bo‘lish zarurligini eslatishi bilan ajralib turadi. Imom Termiziyning ilmiy merosi nafaqat hadis ilmida, balki musulmonlarning ma‘naviy va axloqiy hayotida ham abadiy ahamiyatga ega ekanligi aniq ko‘rinadi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul tuosul arabiy, 2004. – J. I.
2. Shamsiddin Muhammad Zahabiy. Kitob Tazkirat al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
3. Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. III.
4. Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy./ Tarjimon, sharh va izohlar muallifi: Mirzo Kenjabek. – T.: Sharq, 2010.
5. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahziyb. Dorul fikr, 1984. J. 9.
6. Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a‘laamin nubala. – Bayrut, Muassasatur risala, 1993. J. 18. – B. 513;